




JAHON
XALQ ERTAKLARI

DINOZAVR VA SICHQONCHA





DINOZAVR VA SICHQONCHA




Qabul qilindi
12.10.2020 yil

UO'K: 398.21(=512.133)
KBK: 2(50')
X 22

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



ISBN 978-9943-07-759-1

© M. Omon tarjimasi
© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

DINOZAVR VA SICHQONCHA

(Ingliz xalq ertagi)



Allaqaysi bir o‘rmonda bitta Dinozavr yashar ekan. U doim xo‘m-rayib yurar, hech kimga, hech qachon salom bermas, hatto biror marta kulib ham qaramas ekan.

Shu sababli o‘rmondagi barcha jonivorlar undan nihoyatda qo‘rqishar ekan. Axir umrida biror marta kulmaydigan Dinozavrdan har narsani kutish mumkin-da, to‘g‘ri emasmi? U o‘rmonga kelishi bilan barcha jonivorlar qo‘rqqanidan turli joylarga, kimdir butalarning ostiga, yana kimdir uyasiga berkinib olishar ekan. Xullas, shu Dinozavrni deb o‘rmondagi barcha hayvonlar qo‘rquvda, yurak hovuchlab yashar ekanlar.

Dinozavr bir kuni kechqurun uxlash uchun o'rmondagi bir tepalikka chiqib olibdi. Axir uning o'z uyi yo'q ekanda. Ha, aytgancha, uning mehmonga chaqiradigan, uni yo'qlab keladigan do'stlari bo'lmagandan keyin, Dinozavrga uy nimaga ham kerak bo'lardi, deysiz?! Biroq, Dinozavr do'nglikka yonboshlab yotarkan, o'zining beso'naqay gavdasini, aniqrog'i bir biqini bilan o'sha yerda bo'lgan Sichqonning uychasiga kiriladigan tuynukni berkitib qo'yganini xayoliga ham keltirmabdi.

Shunday qilib Dinozavr, hech narsadan bexabar uyquga ketibdi. Oradan biroz vaqt o'tib, tepalikka Sichqoncha kelibdi. Sinchqoncha kelib qarasa, uyiga kiriladigan tuynuk butkul yopiq. Dinozavr yo'lni to'sib






qo'yibdi. Sho'rlik Sichqon uyiga kirish uchun nimalar qilmabdi deysiz: hali oyoqchalari bilan Dinozavrning gavdasini itarib ko'ribdi, qulog'iga yaqin kelib, bor ovozida chiyillabdi, qornining ustida sakrabdi. Xullas, uyiga kirib olish uchun rosa harakat qilib, buning uddasidan chiqa olmabdi.

Shu payt kutilmaganda, Dinozavr uyqudan uyg'onib qolibdi. Haya, shunchaki uyg'onmabdi, u avvaliga o'rnidan turishni istamayotganday, bukchayib, buralib o'tirib olibdi. Keyin esa yerga ag'anab rosa xoxolab kulibdi.





Kulaveribdi, kulaveribdi, hech o‘zini bosa olmabdi. Shu qadar berilib kulganidan ko‘zlaridan yosh chiqib ketibdi. Kulib bo‘lgach, u endi to‘tovsiz aksirishga tushibdi. Keyin ma’lum bo‘lishicha, o‘sha beso‘naqay va qo‘pol Dinozavrning qornida qitig‘i bor ekan. Nihoyat, u o‘zini bosib olgach, Sichqonchaga qarab shunday debdi:

– Eh, Sichqoncha, Sichqoncha, meni kuldirganing rosa ajoyib ish bo‘ldi-da. Axir men tug‘ilganimdan buyon, hali biror marta ham kulmagan edim. Bu ishing menga judayam yoqdi. Kel, istasang, endi ikkalamiz do‘st bo‘lamiz!







– Xo‘p, do‘st bo‘lsak, bo‘laqolaylik, – deya rozilik bildiribdi Sichqoncha ham. „Biroq, sen avval, o‘rningdan tursang yaxshi bo‘lardi. Mening uyimga kiradigan tuynukni butkul to‘sib qo‘yganingdan uyimga kira olmayapman“, – debdi Sichqoncha. „Ie shundaymi?“ – deya xijolat bo‘libdi Dinozavr. „Meni kechirasan, marhamat!“ U shunday deb hurmat bilan o‘rnidan turib, Sichqonchaga yo‘l bo‘shatibdi.

Xullas, o‘shandan beri ularning ikkisi yaqin do‘st bo‘lib qolishibdi va hozirgacha inoq va ahil yashab kelishmoqda ekan. Ular endi birgalikda



sayr qilishar, multfilmlar ko‘rishar, turli o‘yinlar o‘ynashar va hatto rasmlar chizishar emish. Dinezavr ham endi doim kulib yuradigan bo‘lgan emish.

Shundan so‘ng nafaqat Sichqoncha, balki, o‘rmondagi boshqa hayvonlar ham, ya‘ni Quyovvoy ham, Tulkixon, Bo‘rivoy, Qurbaqa va hatto Ayiqpolvon ham Dinezavr bilan yaqin o‘rtoq bo‘lishibdi. Ular hammalari birgalashib, do‘stlari Dinezavr uchun katta va hashamatli uy qurib berishibdi. Endi Dinezavr o‘zining shinam va o‘ta salobatli uyida do‘stlarini mehmonga chaqiradigan, ular bilan har kuni biri-biridan qiziq va kulguli mavzularda yayrab suhbatlashadigan bo‘libdi!






CHUMOLI VA SHAKAR

(Ingliz xalq ertagi)

Lyusi xolaning uyi va bog‘i bor ekan. Xolaning o‘zi uyda yashar, bog‘ida esa chumolilar hayot kechirisharkan.

Kunlarning birida Tomas degan bir chumoli dabdurustdan: „Qornim ochlikdan tatalab ketdi. Bir atrofni qarab ko‘ray-chi, birorta totliroq yegulik toparman“ – deya uydagi eshikning tagidan emaklab o‘tib, oshxonada turgan kattagina javonga chiqib olibdi. Keyin esa, javonning eshigiga tirmashib, kalitning tirqishigacha yetib kelibdi. So‘ng tirqishdan o‘tib, „lip“ etib javon-








ning ichiga kirib olibdi. U atrofga alang-jalang qaray boshlabdi va uning ko'zi kattakon shisha idishga tushibdi. Idish esa shakar bilan liq to'la ekan.

– Oh, ho, shakar bor ekan! Ayni men yoqtiradigan shirinlik! – deya xayqiribdi chumoli Tomas, xursandligini yashirolmay.



U o'ylab ham o'tirmasdan, idishdagi shakarni paqqos tushira boshlabdi. Shakar ham deng, hammamiz biladigan shakar emasmi, rosayam shirin ekan. Tomas uni yeyaveribdi, yeyaveribdi, shakarni yegan sari uning qorni shishib, qappayib boraveribdi. Axiyri u shu darajada bo'kibdiki, tomog'idan bir dona ham shakar o'tmay qolibdi.






Shunda Tomas endi uyga qaytsam ham bo‘ladi, degan fikrga kelibdi va yana javondagi kalitning teshigiga bosh suqibdi. Biroq u shakarni yeyaverib shu darajada semirib ketibdiki, kalitning teshigiga sirayam sig‘mabdi. Bu ahvoldan xo‘rliги kelib, bechora chumoli yum-yum yig‘labdi. Axir u onasi uyida o‘g‘lini kutib, xavotir olib o‘tirishini yaxshi bilar ekanda.


Shunda u kalitning tirqishidan o‘tishga yana bir bor unnab ko‘ribdi, biroq bundan hech bir natija chiqmabdi, chindan ham u juda semirib ketgan ekan.



Tomas „ozib olish uchun gimnastika bilan shug‘ullanish kerak“ – deb o‘ylabdi. U o‘rnidan turib, oldiga, ortiga, o‘ngga, chapga qarab egilibdi; o‘tirib, turibdi, chuqur-chuqur nafas olib, nafas chiqaribdi: „bir-ikki, bir-ikki“ – deb, oshxona javoni ichida uyoqdan buyoqqa qarab yuguribdi. Nihoyat yana o‘zining avvalgi holiga qaytibdi.

U endi ortiga qaytmoqchi bo‘lib turgan ekan, birdaniga yana qorni ochib, qolganini his etibdi.







„Eh, yo‘l oldidan yana ozgina qornimni to‘ydirib olsam, yaxshi bo‘lar-dida“ – degan o‘y bilan u yana ozgina shakar yebdi.

Shakar judayam shirin emasmi, chumoli Tomas bu safar ham o‘zini to‘x-tata olmay qolibdi. U ortiga tezroq, chopqilab qaytish uchun kuchliroq bo‘lishni istabdi. Shuning uchun shakarni yebdi, yeyaveribdi. Kalitning tirqishiga kelganda esa, semirib ketganidan, yana sig‘may qolibdi.

Shunday qilib shirinxo‘r chumolining tag‘in gimnastika qilishiga to‘g‘ri kelibdi: bir-ikki, bir ikki, bir-ikki! Tomas, endi o‘zi uchun bir narsani aniq bilib olibdi: „Och qolamanmi yo‘qmi, agar uyga ertaroq boray desam, endi shakarning yoniga ham yo‘lamasligim kerak!“ Shunday qilib, ikkinchi bor qilingan gimnastika mashqlaridan so‘ng u kalit tirqishidan bemalol o‘tib olibdi. So‘ng javonning eshigi orqali pastga tushibdi, undan oshxona eshigi tagidan emaklab, yana qadrdon bog‘da paydo bo‘libdi.





Uyiga qaytib kelgach, u onasiga shakarxo‘rligi tufayli o‘z boshidan kechirgan voqealarni so‘zlab beribdi. Shunda uning onasi barcha chumolilarni to‘plab ularga:

– Ha, bu juda jiddiy masalaga o‘xshaydi. Biz bu borada Lyusi xola bilan gaplashib olishimiz kerak! – debdi.

Shunday qilib barcha chumolilar bog‘ orqali Lyusi xolaning uyiga qarab yo‘l olishibdi. Ular avval eshikning tagidan o‘tishibdi, keyin oshxona orqali dahlizga, undan esa Lyusi xolaning mehmonxonasiga va nihoyat gilamcha ustidan yurishib xola o‘tirgan stulga o‘tishibdi, nihoyat stulning oyoqlaridan o‘rmlashib, Lyusi xolaning tizzasiga chiqib olishibdi.

Lyusi xola uyiga birvarakay shuncha chumolining mehmonga kelganidan rosayam xursand bo‘lib ketibdi. Chumolilar biri olib, biri qo‘yib, hatto ayrimlari jo‘rovoz bo‘lishib, Tomas qanday qilib, kalitning tirqishidan to shakargacha yetib borgani va shakarga to‘yib olgach uyiga qaytib kela olmay, tirqishga tiqilib qolgani haqidagi hikoyani so‘zlab berishibdi.

Lyusi xola ham bu kulguli hikoyani tinglab, endi chumolilar uchun oshxonadagi shakarning bir qismini alohida likopchaga solib qoyishga va‘da beribdi. Bu so‘zni eshitgan barcha chumolilar uylariga qaytishdan avval, Lyusi xolaga birma-bir minnatdorlik bildirishibdi, hatto ularning ayrimlari xolaning qitiqlarini keltirganicha, uning yuzlaridan o‘pib ham qo‘yishibdi.

82(50')
X 22

Dinozavr va sichqoncha / [Matn]: ertak. – Toshkent:
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(50')

RASSOM:

SHOHRUX TOSHTURDIYEV

JAHON XALQ ERTAKLARI

„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Tarjimon *Muhiddin Omon*
Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2022. Bichimi 84×108¹/₁₆.
„Times New Roman“ garniturası. 14 kegl.
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 868-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya_nashriyoti_MU2021



Ensiklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591